

Termiz shahrida hokim yordamchilarining tavsiyasi bilan ajratilgan kreditlar asosida tashkil etilgan baliqchilik va parrandachilik tajribasi tanishtirildi



Termiz shahrida hokim yordamchilarining tavsiyasi bilan ajratilgan kreditlar asosida tashkil etilgan baliqchilik va parrandachilik tajribasi tanishtirildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 avgustdagi PQ-5228-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Termiz shahridagi «Guliston» mahallasida «Bir maxalla – bir maxsulot» tamoyiliga muvofiq intensiv usulda baliqchilik loyihasi amalga oshirilmoqda.

Bugun, Surxondaryo viloyat hokimi To'ra Bobolov boshchiligida Termiz shahar hamda

barcha tumanlar sektor rahbarlari, mutasaddilar va OAV vakillari birgalikda hokim yordamchisi Salohiddin Chorievning xonadonida bo'lishib, hovlida intensiv usulda baliq yetishtirish faoliyati bilan yaqindan tanishishdi.

Shundan so'ng rahbarlar "Shifokor" mahallasida o'z uyida kurka (indyuk) yetishtirayotgan Xo'jaqulova Dinora Baxtiyorovna xonadoniga tashrif buyurishdi. Sektor rahbarlariga xonadon egasi o'zining kurka yetishtirish borasidagi tajribalarini gapirib berdi.

Aytib o'tish lozimki, mazkur ishlar hokim yordamchilarining tavsiyasi asosida ajratilayotgan kredit mablag'lari asosida aholining real qo'shimcha daromadlarini oshirishga hamda ishchi o'rni yaratishga katta hissa qo'shmoqda.

Yakunda viloyat hokimi tomonidan yuqoridagi tajribadan kelib chiqib, aholining baliq va parranda go'shtiga bo'lgan talabini qondirish maqsadida viloyatning barcha tumanlarida baliq va parranda yetishtirishni yanada kengaytirish yuzasidan mutasaddilarga aniq ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

